

## BOSHQARISH USULLARINI ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA QO'LLASH.

Toshkent davlat texnika universiteti  
Qo'qon filiali muhandislik fakulteti  
9-23 menejment guruhi talabasi  
**Soliyev Islomjon**

**ANNOTATSIYA:** Boshqarish — xo'jalik obyektining iqtisodiy tizimi holatini tartibga solish va yo'naltirish jarayoni; subyektlar, idoralar tomonidan kishilar va iqtisodiy obyektlarga ongli maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishni bildiradi, ularning faoliyatini yo'naltirish va ko'zlangan natijalarga erishish maqsadlarida amalga oshiriladi. Boshqarish usullarini o'rganish va uni hayotga tatbiq etish tezisimning asosiy mazmuni hisoblanadi. boshqarish usullarining ustun jihatlari va kamchiliklari.

**TAYANCH SO'ZLAR:** boshqaruv, liberal rahbar, avtokrakit rahbar, metodlar, rahbar va ishchi o'rtasidagi munosabat, ishchi psixologiyasi, ishchi kuchi.

Usul bu tadqiqot qilish yoki ta'sir ko'rsatish usulidir. Tadqiqot qilish nuqtai nazaridan kelib chiqib, boshqaruv obektini o'rganish jarayonida qo'llaniladigan usullar, ya'ni sistemaviy yondashuv, kompleks yondashuv, tarkibiy yondashuv, integratsion yondashuv, modellashtirish, iqtisodiy-matematik yondashuv, kuzatish, eksprement, sotsiologik kuzatuv kabi tahlilning ilmiy usullari tushuniladi.

Ta'sir ko'rsatish nuqtai nazardan esa usul deganda boshqarish funksiyalarini amalga oshirish uchun boshqarish ob'ektiga ta'sir o'tkazish usullari tushuniladi. Bunday usulga quyidagilar kiradi:

- funktsional tizimosti ob'ektlarini [boshqarish usuli](#);
- boshqarish funksiyalarini [bajarish usullari](#);
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullari.

Har [xil yondashuvlar](#), yo'sinlar, yo'llar yordamida amalga oshiriladigan turli-tuman boshqaruv ishlarining majmui - boshqaruvning aniq va o'ziga xos usullari deb yuritiladi.

Boshqaruv o'zi nima? Boshqarish bu biror obyekt yoki subyektni tartibga solish hisoblanadi. Boshqarish usullari esa, shu obekt yoki subektlarni tartibga solishning turli korinishlari hisoblanadi ba'zi hollarda ularni boshqarish metodlari deb ham atashadi. "Metod" so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib, "methodos" ya'ni "qandaydir maqsadga ye'tish" ma'nosini bildiradi.

Boshqarishning uchta asosiy usuli mavjud. bular: iqtisodiy, ma'muriy va ijtimoiy. Boshqarishning iqtisodiy usuli manfaatlarga asoslanadi. Manfaat o'zi nima? Manfaat so'zi arabchadan olingan bo'lib foyda daromad degan ma'nolarni anglatadi. Manfaatlari ham turli ko'rinishda bo'ladi: shaxsiy manfaat, jamoaviy manfaat, umuminsoniy manfaatlar. ishlab chiqarish korxonalarida ko'proq shaxsiy manfaatga asoslangan iqtisodiy metoddan foydalanishadi.

Ma'muriy tizim bu qonuniylashtirilgan tizimdir. Bu tizimdan ham juda ham ko'plab korxonalarda foydalaniladi. Uchinchi iqtisodiy tizim bu ijtimoiy hisoblanadi ya'ni ishchilar muammolari va psixologiyasiga oid boshqaruv metodi.

Bir korxonada katta miqdorda ya'ni me'yordan ko'proq zakaz oldi deylik. Bu holatda iqtisodiy usuldan foydalanish juda samarali hisoblanadi. Ya'ni kim eng ko'p miqdorda ish chiqarsa uni taqdirlayman, yoki kim ko'proq vaqt ishlasa unga sovg'a bor ko'rinishida. Bu holatda ishchilar o'rtasida raqobat yuzaga keladi va ish unumdorligi oshadi.

Ma'muriy metodda esa, ish vaqti uzaytirilishi yoki tushlik vaqti qisqartirilishi ko'rinishida bo'ladi. Ya'ni ish vaqti aslida soat 9:00 da boshlanishi kerak, lekin ish ko'pligi sababli ish vaqti 8:00ga ko'chiriladi. Ammo bu ko'plab noroziliklarga olib keladi. bunga yagona yechim ishchilarga ish vaqti uchun qo'shimcha haq to'lashdir.

uchinchi metodda esa, ishchilarning ijtimoiy holati o'rganiladi. bu metodda har bir ishchiga alohidadan yondashiladi. kimga nima kerak, qachon zarurat yuzasidan qisqa ta'til olishi mumkin kabi savollarga javob topiladi. bu ozgina murakkab, ammo samarali metod hisoblanadi.

mening fikrimcha eng yaxshi metod bu iqtisodiy metod hisoblanadi. chunki bu metodni yo'lga qo'yish uncha ko'p bo'lmagan vaqtni talab qiladi. bundan tashqari bu usulda ichki nizolar ham kelib chiqmaydi. ishchilarda ishga bo'lgan qiziqish uyg'onadi, o'zlari hohlab qo'shimcha ishlashadi va mehnatlariga yarasha hadyalar olishadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://abiturtest.uz/mavzular/boshqaruv-usullari/>
2. <https://kompy.info/ozbekiston-aloqa-axborotlashtirish-va-kommunikatsiya-texnologi.html?page=3>
3. N. Sharipova, Milliy tarixni o'rganish dolzarbligi masalalari / International Conference on Journal of technical research and development Hosted from Delhi, India 1st dec. 2023
4. Шарипова Наргизахон Абдуқаххоровна, Процесс становления педагогических учебных заведений Узбекистана в 1945-1965 гг. / International Conference on Journal of technical research and development Hosted from Delhi, India 1st dec. 2023
5. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. [O'zbekistonda pedagogik bilim yurtlarining shakllanish jarayoni \(1945-1965 yillar\)/ Vol. 4 No. 1 \(2023\): SCIENCE PROMOTION Confrence](#)
6. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. O'zbekistonda xorijiy tillarning o'qitilish tarixi/ [Vol. 4 No. 1 \(2023\): SCIENCE PROMOTION Confrence](#)
7. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. XX asrning 40-80 yillarida Farg'ona vodiysi o'qituvchilarining jismoniy hordiq chiqarish imkoniyatlari/ [Vol. 2 No. 16 \(2023\): Educational Research in Universal Sciences \(ERUS\)](#)
8. Sharipova Nargiza, Ph.D. History of Teacher Training System in Uzbekistan and Changes in it./Modern Journal of Social Sciences and Humanities ISSN: 2795-4846 Volume22(Dec-2023)Available online: <https://mjssh.academicjournal.io> 63-68